

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

“TASDIQLAYMAN”



**OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINI
2024–2029-YILLARGA MO'LJALLANGAN
RIVOJLANTIRISH STRATEGIK REJASINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA
YO'L XARITASI**

(Chora-tadbirlar, amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas'ul ijrochilar bilan)

Qarshi — 2024

UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Yo'l xaritasi Osiyo texnologiyalar universitetining 2024–2029-yillarga mo'ljallangan rivojlantirish (strategik) rejasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, strategiyada belgilangan strategik maqsadlar, vazifalar va asosiy strategik yo'nalishlarni amaliyotda samarali tatbiq etishga qaratilgan.

Yo'l xaritasi 8 ta asosiy strategik yo'nalish bo'yicha 90 dan ortiq aniq chora-tadbirni o'z ichiga oladi. Har bir chora-tadbir bo'yicha quyidagilar belgilab berilgan: chora-tadbir nomi, amalga oshirish mexanizmi, ijro muddati, mas'ul ijrochi, moliya manbasi, hamda kutilayotgan natija (indikator).

Yo'l xaritasi ijrosi ustidan umumiy nazorat va monitoring Osiyo texnologiyalar universiteti rektori zimmasiga yuklatiladi. Universitet rektori har yili dekabr oyida Vasiylik kengashiga yo'l xaritasi ijrosi haqida yozma hisobot taqdim etadi.

Yo'l xaritasi ijrosi 2027-yilda majburiy oraliq monitoringdan o'tkaziladi va zarur hollarda Vasiylik kengashi qarori asosida tegishli korreksiyalar kiritilishi mumkin.

UNIVERSITET FAOLIYATINING UMUMIY RIVOJLANISH MAQSADLARI

2. Universitetni xalqaro maydonda nufuzini oshirishga qaratilgan konsepsiyasini ishlab chiqish

3. Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy loyihalar va grantlarda faol ishtirok etish

4. Universitet faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari korxonalari bilan xo'jalik shartnomalarini tuzish

5. Universitetda ta'lim sifatini yaxshilash uchun moddiy-texnik bazani shakllantirish

6. Professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalar bilan hududiy rivojlanishga bag'ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirish, analitik hisobotlar tayyorlash

1. Kafedralarning o'quv faoliyatini ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) kredit-modul tizimi hamda Hemis platformasidan foydalanish

7. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va vebinarlarni tashkil etish

2024-2029-yillar uchun strategiya

Masofaviy ta'lim (MOOK (Massive Open Online Courses)) samaradorligini oshirish bo'yicha fanlardan video ma'ruzalarni tayyorlash

"Bitta xodim – bitta xorijiy ilmiy maqola", "Bitta kafedra – bitta ilmiy loyiha" aksiyasini amalga oshirish

Ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish, uni targ'ib qilish

Respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda (Scopus, Web of Science) maqolalar chop etish va ilmiy loyihalarni tayyorlash bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish

QS (Quacquarelli Symonds), THE (Times Higher Education), ARWU (Academic Ranking of World Universities) xalqaro reting agentliklari talabiga mos ravishda rahbariyat tomonidan belgilangan vazifalarni to'liq bajarish

5 muhim tashabbus doirasida ishlarni faollashtirish. Iqtidorli o'quvchilar va talabalar seleksiyasini amalga oshirish va ular bilan maxsus dasturlar asosida ishlarni tashkil etish

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan yozma ishlanmalarni Google Scholar bazasiga kiritish va rasmiy saytni Webometrics talabidan kelib chiqib, takomillashtirish

PROFESSOR-O'QITUVCHI VA XODIMLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADIGAN VAZIFALAR

2024–2029-YILLARGA MO'ljALLANGAN YO'L XARITASI

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochi	Moliya manbasi	Kutilayotgan natija / Indikator
1. TA'LIM SIFATINI OSHIRISH						
1	O'quv reja va fan dasturlarini xalqaro standartlar asosida qayta ishlash	Kafedralar tomonidan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha reviziya, kasbiy standartlar va mehnat bozori talablari bilan muvofiqlashtirish, akademik kengashda tasdiqlash	2025 yil I–IV chorak	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari, Akademik iashlar departamenti	Universitet byudjeti	Yangilangan o'quv rejalari — 100%
2	HEMIS va kredit-modul tizimini to'liq qamrovga yetkazish	Barcha ta'lim yo'nalishlarini HEMIS platformasiga to'liq integratsiya qilish, baholash va attestatsiya jarayonini elektronlashtirish	2025 yil I–II chorak	IT departamenti, Akademik iashlar departamenti, dekanlar	Universitet byudjeti	HEMIS qamrovi — 100%
3	Kompetensiyaga asoslangan baholash modulini joriy etish	Har bir fan bo'yicha bitiruvchi kompetensiyalari ro'yxatini ishlab chiqish, rubrik va baholash mezonlarini tasdiqlash	2025–2026 y.	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti, kafedralar	Universitet byudjeti	Baholash 100% kompetensiya asosida
4	MOOC (masofaviy ta'lim) platformasini ishga tushirish	Moodle yoki o'xshash LMS platforma asosida kamida 20 ta onlayn kursni ishlab chiqish va joylashtirish	2025 yil III chorak – 2027 yil	IT departamenti, kafedralar	Universitet byudjeti, byudjetdan tashqari mablag'lar	MOOC kurslari — 20+ ta
5	Dual ta'lim bo'yicha ish beruvchilar bilan shartnomalar	Qashqadaryo viloyatidagi tashkilot, korxona va ta'lim muassasalari bilan dual ta'lim shartnomalarini tuzish	2024–2028 y.	Akademik ishlar bo'yicha prorektor,	Universitet byudjeti	15+ ta shartnoma imzolanadi

				Akademik ishlar departamenti, dekanlar		
6	Yangi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha litsenziya olish	60420100 Yurisprudensiya, 60111300 Texnologik ta'lim, 60510100 Biologiya, 60110600 Matematika va informatika, 60910100-300 tibbiyot yo'nalishlari hujjatlarini tayyorlash	2025–2027 y.	Rektor, Akademik ishlar bo'yicha prorektor, yuridik bo'lim	Universitet byudjeti	7 ta yangi litsenziya
7	Professor-o'qituvchilar uchun yillik malaka oshirish	Har bir professor-o'qituvchi uchun individual malaka oshirish rejasi, mahalliy va xorijiy kurslar, sertifikatlash	Har yili 2024–2029	HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti	Universitet byudjeti	Yillik qamrov — 100%
8	Xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish	AQSh, Yevropa, Osiyo davlatlaridan vizit professorlar va o'qituvchilarni ma'ruzalar o'qish uchun taklif qilish	Har yili 2026–2029	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, Xalqaro aloqalar departamenti	Universitet byudjeti, grant	Yiliga 5+ nafar
9	Ichki ta'lim sifati auditori tizimini joriy etish	Yillik ichki audit jadvali, sifat baholash anketalari, fakultet va kafedralar bo'yicha hisobotlar	2025–2026 y.	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti	Universitet byudjeti	Audit qamrovi - 100%
10	Talabalar qoniqish so'rovnomalari va monitoringi	Har semestrda elektron anketa, natijalarni tahlil qilish va kafedralarga qaytarish	Har semestrda 2025–2029	Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti, dekanlar	Universitet byudjeti	Qoniqish darajasi - 85%+
11	Karyera markazi va bitiruvchilar bilan ishlash	Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishini kuzatish, ish	Doimiy 2025–2029	Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga	Universitet byudjeti	Ish bilan ta'min. - 90%+

		beruvchilar bilan aloqa, karyera fest tashkil etish		ko'maklashish departamenti, dekanlar		
12	Xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik	ASIIN, AQAS yoki shunga o'xshash xalqaro akkreditatsiya agentliklari bilan ishlash, kamida 5 ta dastur bo'yicha	2027–2029 y.	Rektor, Akademik ishlar bo'yicha prorektor Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti,	Universitet byudjeti, grant	5+ akkreditatsiyalangan dastur
2. ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH						
13	Universitet ilmiy salohiyatini 35%dan oshirish	PhD/DSc darajali kadrlarni jalb qilish, o'z xodimlarini doktoranturaga yuborish, kafedralar bo'yicha individual rejalar	2027 yil 1-sentabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari	Universitet byudjeti	Ilmiy salohiyat — 35%+
14	Tayanch doktorantura ochish	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga rasmiy taklif tayyorlash, hujjatlar to'plamini topshirish	2025–2026 y.	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik bo'lim	Universitet byudjeti	Tayanch doktorantura ochiladi
15	“Raqamli taraqqiyot” elektron ilmiy jurnalini tashkil etish	AOK ro'yxatdan o'tkazish, tahririyat hay'atini shakllantirish, ISSN olish, bosqichma-bosqich OAK va xalqaro bazalarga kiritish	2025 yil III–IV chorak	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Universitet byudjeti	Jurnal AOK + OAK ga kiritiladi
16	Scopus / WoS / Impact Factor nashrlarini oshirish	Mualliflarga grant tarzida ko'mak, nashr xarajatlarini qoplash, ilmiy yozish bo'yicha treninglar	Har yili 2025–2029	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar	Universitet byudjeti, grant	5 yilda 200+ Scopus/WoS

				departamenti, kafedralar		
17	“Bitta xodim — bitta xorijiy maqola” aksiyasi	Har bir professor-o‘qituvchi uchun yillik kamida 1 ta xorijiy nashr majburiyati, KPI ga kiritish	Doimiy 2025–2029	Kafedra mudirlari, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Universitet byudjeti	Qamrov — 100%
18	“Bitta kafedra — bitta xorijiy loyiha” aksiyasi	Har bir kafedra xorijiy hamkor bilan kamida 1 ta tadqiqot loyihasi yuritadi, yillik hisobot beradi	Doimiy 2026–2029	Kafedra mudirlari, xalqaro aloqalar departamenti	Grant, universitet byudjeti	Har bir kafedrada 1+ loyiha
19	Yosh olimlar kengashi va Talabalar ilmiy jamiyatini tashkil etish	Nizomni ishlab chiqish, raisni saylash, yillik tadbirlar va konferensiya rejasini tasdiqlash	2025 yil II–III chorak	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, talabalar ittifoqi	Universitet byudjeti	2 ta tashkilot ishga tushadi
20	Ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash	Har bir kafedraning ehtiyojlarini tahlil qilish, bosqichma-bosqich xarid jadvalini tuzish	2025–2028 y.	Moliya va rejalashtirish departamenti, operatsion departament, kafedra mudirlari	Universitet byudjeti, investitsiya	Laboratoriyalarning 100% jihozlanishi
21	Yillik patentlar olish (kamida 5 tadan)	Innovatsiyalar markazi orqali patent uchun ariza tayyorlashda yordam, intellektual mulkka oid maslahatlar	Har yili 2025–2029	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Universitet byudjeti	5 yilda 25+ patent
22	Xalqaro va respublika grantlariga ariza topshirish	Erasmus+, DAAD, Horizon Europe, Innovatsion rivojlanish vazirligi grantlari va boshqalar	Har yili 2025–2029	Xalqaro aloqalar departamenti, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar	Grant	5 yilda 10+ g‘olib loyiha

				departamenti, kafedralar		
23	Startup akselerator va biznes-inkubator ishga tushirish	Talaba va xodimlarning startup g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, mentor xizmati, ofis joyi va seed-investitsiya	2026–2027 y.	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti, kafedralar	Investitsiya, grant	Akselerator ishga tushadi
24	Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish	Yiliga kamida 2 ta xalqaro konferensiya, asosiy yo'nalishlar bo'yicha taklif qilingan ma'ruzachilar bilan	Har yili 2025–2029	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti,, kafedralar, xalqaro aloqalar departamenti	Universitet byudjeti, sponsor	Yiliga 2+ xalqaro tadbir
25	Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalar	Yiliga kamida 4 ta respublika konferensiyasi, talaba va doktorantlar ishtiroki bilan	Har yili 2025–2029	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti, dekanlar, kafedralar	Universitet byudjeti	Yiliga 4+ tadbir
26	Magistratura va doktorantura yo'nalishlarini kengaytirish	Bakalavriat negizida yangi magistr mutaxassisliklari ochish, doktorantura uchun shart-sharoit yaratish	2026–2029 y.	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	Universitet byudjeti	Magistratura 6 → 15+; doktorantura ochiladi
3. XALQARO HAMKORLIK VA AKADEMIK MOBILLIK						
27	Qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish	Indoneziya, Hindiston, Yevropa, AQSh universitetlari bilan 2+2 yoki 3+1 modelidagi qo'shma dasturlarni shartnoma asosida joriy etish	2025–2028 y.	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, Xalqaro aloqalar departamenti,	Universitet byudjeti, kontrakt	5+ qo'shma dastur

28	QS va THE xalqaro reytinglariga ariza topshirish	Talab qilinadigan ko'rsatkichlarni shakllantirish, ma'lumotlar bazasini to'ldirish, rasmiy ariza topshirish	2026–2027 y.	Rektor, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti, kafedralar	Universitet byudjeti	QS/THE reytinglarida mavqe
29	Xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish (yillik)	Vizit professor lavozimlari ochish, qisqa muddatli ma'ruzalar uchun shartnomalar tuzish	Har yili 2025–2029	Xalqaro aloqalar departamenti, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti	Universitet byudjeti	Yiliga 5+ nafar
30	Xodimlarni xorijiy stajirovkalarga yuborish	1 oylik maqsadli malaka oshirish kurslari, individual rejalar, qaytib kelganda hisobot	Har yili 2025–2029	HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti, xalqaro aloqalar departamenti	Universitet byudjeti, grant	Yiliga 10+ stajirovka
31	Talabalarning xalqaro akademik mobilligi	Erasmus+, Mevlana, Newton Fund va o'xshash dasturlar orqali bir semestrlik almashinuv	Har yili 2025–2029	Xalqaro aloqalar departamenti, dekanlar	Grant, universitet byudjeti	Yiliga 20+ talaba
32	Top-500 universitetlar bilan hamkorlik shartnomalari	Strategik hamkorlik (MoU) shartnomalarini tuzish va amaliy ish dasturlari ishlab chiqish	2025–2029 y.	Rektor, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor	Universitet byudjeti	10+ shartnoma
33	Xalqaro yozgi va qishki maktablar	Mintaqaviy va xalqaro talabalar uchun yozgi/qishki maktablar tashkil etish	Har yili 2026–2029	Xalqaro aloqalar departamenti, dekanlar, kafedralar	Kontrakt, sponsor	Yiliga 1–2 maktab
34	Onlayn xalqaro kurslar va sertifikatlash platformalariga ulanish	Universitetning veb-platformasida xalqaro ko'rinishdagi kurslarni joylashtirish va sertifikat berish	2026–2028 y.	IT departamenti, xalqaro aloqalar departamenti	Universitet byudjeti	Onlayn platforma ishga tushadi

35	Erasmus+ va Horizon Europe loyihalarida ishtirok etish	Loyihalar yozish bo'yicha guruh tashkil etish, hamkorlar bilan konsorsium tuzish	Har yili 2025–2029	Xalqaro aloqalar departamenti, Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Grant	Yiliga 2+ ariza, 1+ g'olib
36	Xorijiy talabalarni jalb qilish	Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlaridan talabalarni qabul qilish, marketing kampaniyasi	2026–2029 y.	Qabul komissiyasi, xalqaro aloqalar departamenti, marketing bo'limi	Kontrakt	Xorijiy talabalar — 100+
4. MODDIY-TEXNIK BAZA VA RAQAMLI INFRATUZILMA						
37	Internet tezligini 600 Mb/s, TAS-IX ni 1 Gb/s ga oshirish	Provayder bilan shartnomani yangilash, optik tolali kanal o'tkazish, media-konvertorlar o'rnatish	2025 yil I–II chorak	IT departamenti, Operatsion departament, Moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	Internet — 600 Mb/s; TAS-IX — 1 Gb/s
38	Wi-Fi qamrovini 100%ga yetkazish	Barcha o'quv binolari, talabalar turar joylari va ochiq hududlarga Wi-Fi qurilmalari o'rnatish	2025 yil III–IV chorak	IT departamenti	Universitet byudjeti	Wi-Fi qamrovi — 100%
39	O'quv auditoriyalarini AKT bilan jihozlash	Har bir auditoriyaga smart TV/proyektor, kompyuter, audio tizim xarid qilish va o'rnatish	2025–2027 y.	Operatsion departament, IT departamenti	Universitet byudjeti	Auditoriyalar — 100% jihozlangan
40	Server xonalari va kiberhavfsizlik tizimini joriy etish	Server xonalarini ishga tushirish, ma'lumotlarni zaxiralash, firewall va antivirus tizimlari	2025–2026 y.	IT departamenti	Universitet byudjeti, investitsiya	Kiberhavfsizlik — ISO 27001 darajasida
41	E-Exam (avtomatlashtirilgan yakuniy nazorat) tizimi	Test, yozma va interaktiv imtihonlarni raqamli o'tkazish platformasini joriy etish	2025–2026 y.	IT departamenti, Akademik ushlar departamenti	Universitet byudjeti	E-Exam 100% qamrov

42	E-Library (elektron kutubxona)ni ishga tushirish	Xorijiy ilmiy ma'lumotlar bazalariga obuna, lokal elektron resurslarni raqamlashtirish	2025–2026 y.	ARM, IT departamenti	Universitet byudjeti	25 000+ elektron resurs
43	Raqamli qabul platformasini yaratish	Onlayn ariza topshirish, hujjatlar yig'ish, test sinovlari va avtomatik tahlil tizimi	2025–2026 y.	Qabul komissiyasi, IT departamenti	Universitet byudjeti	Qabul 100% raqamli
44	Talabalar elektron portfolio platformasini yaratish	Akademik, ilmiy, ijtimoiy va sport faoliyatini elektron qayd etish va portfolio shakllantirish	2026–2027 y.	IT departamenti, dekanlar, sifat menejmenti	Universitet byudjeti	Portfolio platformasi ishlaydi
45	Moliya, buxgalteriya va KPI tizimini avtomatlashtirish	Oyliklar, kirim-chiqim, KPI tizimini yagona ERP tipidagi platformaga jamlash	2025–2027 y.	Moliya va rejalashtirish departamenti, IT departamenti, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti	Universitet byudjeti	Avtomatlashtirish — 100%
46	Talabalar turar joylariga maishiy texnika xarid qilish	Smart TV, konditsioner, muzlatgich, kir yuvish mashinasi, suv isitish qurilmasi va boshqalar	2025–2027 y.	Operatsion departament, Moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	Turar joylar 100% jihozlangan
47	Sport zali va inventarlarini yangilash	Sport zaliga zamonaviy trenajyorlar, terma jamoa ekipirovkasi, sport inventarlari xarid qilish	2025–2027 y.	Operatsion departament, Moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	Sport baza zamonaviylashadi
48	Yangi o'quv binosi qurilishi / ijaraga olish	Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, tender o'tkazish, qurilish ishlarini olib borish	2026–2029 y.	Rektor, qurilish va ta'mirlash bo'limi	Investitsiya, kontrakt	1+ yangi bino ishga tushadi

49	O'quv binolarining joriy ta'miri va modernizatsiyasi	Yillik ta'mir rejasi, energetik samaradorlikni oshirish, qulay muhit yaratish	Har yili 2025–2029	Qurilish va ta'mirlash bo'limi, Operatsion departament	Universitet byudjeti	Yillik 1 binoda ta'mir
50	Innovatsion ko'p funksional ko-working markazini shakllantirish	Talaba va o'qituvchilar uchun startap, loyiha va guruhli ish uchun zamonaviy makon	2026–2028 y.	Tadbirkorlik markazi, ma'muriy-xo'jalik	Universitet byudjeti, sponsor	Ko-working ishga tushadi
51	Al-Khorazmiy international school bilan integratsiya	Yagona platformaga integratsiya, pedagoglarni xorijda malaka oshirishga yuborish, moddiy rag'batlantirish	2025–2027 y.	Rektor, IT departamenti, kadrlar bo'limi	Universitet byudjeti	To'liq integratsiya
5. INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH						
52	Kadrlarni tanlash va baholashda meritokratiya tamoyillarini joriy etish	Konkurs orqali tanlash tartibini tasdiqlash, baholash mezonlari va komissiya tarkibini belgilash	2025 yil I–II chorak	Rektor, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti	Universitet byudjeti	100% kadrlar konkurs asosida
53	Yillik malaka oshirish rejasi ishlab chiqish va amalga oshirish	Har bir xodim uchun individual reja, sertifikat olishni nazorat qilish	Har yili 2025–2029	Akademik prorektor, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti	Universitet byudjeti	Qamrov — 100%
54	Yosh olimlar uchun “Mentor–shogird” tizimi	Tajribali professor-o'qituvchilarga yosh shogirdlar biriktirish, yillik natijalarni baholash	2025–2026 y.	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti, kafedralar	Universitet byudjeti	Har bir yosh kadr uchun mentor
55	KPI asosida baholash va rag'batlantirish tizimi	Lavozim bo'yicha KPI ko'rsatkichlari, yillik baholash, oylikka qo'shimcha to'lov va ustamalar tizimi	2025 yil II–IV chorak	Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti, Moliya va rejalashtirish departamenti, HR va	Universitet byudjeti	KPI tizimi 100% qamrovda

				kadrlar malakasini oshirish departamenti		
56	Boshqaruv xodimlari uchun menejment va loyiha boshqaruvi treninglari	PMP, Agile, raqamli kompetensiyalar bo'yicha treninglar, ichki va tashqi murabbiylar bilan	2026–2029 y.	HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti, IT departamenti	Universitet byudjeti, grant	Boshqaruv xodimlari 100% qamrov
57	Xodimlar uchun ijtimoiy rag'batlantirish	Sog'lomlashtirish yo'llanmalari, yubileylar, faxriy unvonlar, bayram tadbirlari	Doimiy 2025–2029	Rektor, Kasaba uyushmasi,	Universitet byudjeti, kasaba	Qoniqish darajasi — 80%+
58	Korporativ madaniyat va jamoaviy ishni rivojlantirish	Team building tadbirlari, korporativ qadriyatlar kodeksi, ichki kommunikatsiya kanali	2025–2029 y.	Rektor, departament boshliqlari, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti,	Universitet byudjeti	Korporativ kodeks tasdiqlanadi
59	Yosh va malakali kadrlarni jalb qilish	Yetakchi OTMlarning bitiruvchilarini va xorijda ta'lim olganlarni jalb qilish kampaniyasi	Har yili 2025–2029	Rektor, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti,	Universitet byudjeti	Yiliga 10+ yangi yosh kadr
60	Ilmiy daraja olishni rag'batlantirish	Doktoranturaga yuborish, dissertatsiya himoyasi uchun moliyaviy ko'mak, ilmiy ta'til berish	Doimiy 2025–2029	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti, moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	Yiliga 5+ yangi PhD

61	Reyting va martaba o'sishi tartib-qoidalarini joriy etish	Lavozimga ko'tarish mezonlari, ichki konkurs tartiblari, yillik reyting natijalari.	2025–2026 y.	Akademik ishlar bo'yicha prorektor, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti,,	Universitet byudjeti	Shaffof martaba tizimi
62	Xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash	Kafedra xonalarini ta'mirlash, ish stollari va texnikani yangilash, kafe va dam olish zonasi	2025–2028 y.	Operatsion departament, kafedra mudirlari	Universitet byudjeti	Mehnat sharoiti yaxshilanadi
63	Yillik korporativ konferensiya va o'qituvchilar forumi	Yutuqlar, muammolar va istiqbol rejalarini muhokama qilish uchun jamoaviy tadbir	Har yili 2025–2029	Rektor, akademik ishlar bo'yicha prorektor	Universitet byudjeti	Yiliga 1 ta forum
6. MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYAT						
64	Yillik ma'naviy-ma'rifiy ishlar konsepsiyasi va rejasini tasdiqlash	Yagona konsepsiya, oylik va choraklik tadbirlar jadvali, javobgar shaxslarni belgilash	Har yili yanvar oyi	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, dekan	Universitet byudjeti	Konsepsiya va reja tasdiqlanadi
65	Besh muhim tashabbus xonalarini boyitish	Har bir turar joy va o'quv binosida 5 tashabbus xonalariga inventar, kitob, jihoz xarid qilish	2025–2027 y.	Operatsion departament, Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish departamenti	Universitet byudjeti	5 xona to'liq jihozlanadi
66	1-tashabbus: madaniyat va san'at	Quvnoqlar va zukkolar, Zakovat, Yil talabasi, teatr studiyalari, Ma'rifat maydoni tanlovlarini tashkil etish	Doimiy 2025–2029	Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish	Universitet byudjeti	Yiliga 10+ tanlov

				departamenti, dekan, talabalar ittifoqi		
67	2-tashabbus: jismoniy tarbiya va sport	Sport to'garaklari, ichki musobaqalar, terma jamoalar, sog'lom turmush targ'iboti	Doimiy 2025–2029	Kafedra, sport markazi	Universitet byudjeti	Yiliga 15+ musobaqa
68	3-tashabbus: IT va innovatsiya	Startup tanlovlari, dasturlash konkurslari, bot va elektron mahsulotlar yaratish bo'yicha tanlovlar	Yiliga 1–2 marta	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti, IT departamenti, kafedralar	Universitet byudjeti, sponsor	Yiliga 1+ startup tanlovi
69	4-tashabbus: kitobxonlik va madaniyat	Yangi adabiyotlar xarid qilish, “Eng yaxshi kitobxon talaba/guruh” tanlovi, kitobxonlik klublari	Doimiy 2025–2029	ARM, Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish departamenti	Universitet byudjeti	Kutubxona fondi yillik 10%ga ortadi
70	5-tashabbus: yoshlar bilan ishlash va ijtimoiy himoya	Iqtidorli va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar ro'yxatini shakllantirish, ko'mak ko'rsatish	Doimiy 2025–2029	Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish departamenti, Kasaba uyushmasi, Yoshlar ittifoqi, dekanlar	Universitet byudjeti, xayriya	100% qamrov
71	Iqtidorli talabalarning elektron bazasini yaratish	Akademik, ilmiy, ijodiy va sport yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli talabalarning ma'lumotlar bazasi	2025–2026 y.	Dekanlar, IT departamenti, Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti	Universitet byudjeti	Baza ishga tushadi

72	Davlat stipendiyalariga nomzodlar tayyorlash	Prezident va nomli stipendiyalarga hujjatlar to'plamini tayyorlash, mentor biriktirish	Har yili 2025–2029	Dekanlar, Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Universitet byudjeti	Yiliga 3+ stipendiyat
73	Huquqiy savodxonlik seminarlari	Prokuratura, sud, advokatura mutaxassislari ishtirokida ochiq darslar va treninglar	Har yili 2025–2029 (oyiga 1+)	Yuridik bo'lim, dekanlar, Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish departamenti	Universitet byudjeti	Yiliga 12+ seminar
74	Biriktirilgan mahallalarda ma'naviy ishlar	Vazirlik buyrug'i bo'yicha biriktirilgan mahallalarda davra suhbatlari, ko'mak tadbirlari	Doimiy 2025–2029	Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish departamenti, dekanlar	Universitet byudjeti, xayriya	Yiliga 24+ tadbir
75	Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni raqamlashtirish	Onlayn ma'rifiy kontentlar, vebinarlar, podkastlar va ijtimoiy tarmoq kampaniyalari	2025–2027 y.	Yoshlar ishlari va talabalar bandligiga ko'maklashish departamenti, IT departamenti	Universitet byudjeti	Onlayn auditoriya — 50 000+

7. BOSHQARUV VA MOLIYAVIY BARQARORLIK

76	Strategik rejalashtirish va monitoring tizimi (dashboard)	KPI ko'rsatkichlari, real vaqtda monitoring qiluvchi elektron dashboard ishlab chiqish	2025–2026 y.	Moliya va rejalashtirish departamenti, IT departamenti	Universitet byudjeti	Dashboard ishga tushadi
77	Ichki audit va nazorat xizmati	Mustaqil ichki audit bo'limi tashkil etish, audit jadvali va metodologiyasini ishlab chiqish	2025 yil II–III chorak	Rektor, Moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	Audit xizmati ishga tushadi

78	Choraklik moliyaviy hisobotlar	Vasiylik kengashi va rektorga choraklik moliyaviy hisobot, audit xulosalari bilan	Doimiy 2025–2029	Bosh hisobchi, Moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	100% shaffof hisobot
79	Byudjetdan tashqari daromadlar ulushini 30%ga yetkazish	Kontrakt, pulli xizmatlar, grant va investitsiya hisobiga byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish	2027-yilga qadar	Rektor, Moliya va rejalashtirish departamenti, kafedralar	Universitet byudjeti	Byudj.dan tashqari — 30%+
80	Pulli ta'lim xizmatlarini kengaytirish	Malaka oshirish kurslari, qisqa muddatli sertifikatlar, til kurslari, IT kurslari	2025–2028 y.	Moliya va rejalashtirish departamenti, HR va kadrlar malakasini oshirish departamenti	Universitet byudjeti	Daromad yiliga 30%ga o'sadi
81	Biznes-hamkorlar va investorlarni jalb qilish	Tijorat bo'limi orqali investorlar bilan muzokaralar, hamkorlik dasturlari taqdim etish	Doimiy 2025–2029	Rektor, marketing bo'limi, yuridik bo'lim	Universitet byudjeti	Yiliga 3+ yirik hamkor
82	Xalqaro grantlar va investitsiya fondlari bilan ishlash	Dunyo Banki, ADB, EBRD va xalqaro fondlar bilan loyiha ishlab chiqish	2025–2029 y.	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, ilmiy innovatsion tadqiqotlar departamenti, kafedralar	Grant	5 yilda 5+ grant
83	Moliya tizimini avtomatlashtirish	1C, SAP yoki o'xshash ERP tizimini joriy etish, oyliklar va xaridlarni avtomatlashtirish	2025–2026 y.	Moliya va rejalashtirish departamenti, IT departamenti	Universitet byudjeti	Avtomatlashtirish — 100%
84	Shaffof davlat xaridlari tartibi	“Davlat xaridlari” platformasidan to'liq foydalanish, ichki nizomni tasdiqlash	2025-yil	Moliya va rejalashtirish departamenti, bosh hisobchi	Universitet byudjeti	100% xaridlar elektron tarzda

85	O'quv binolari va talabalar turar joylari ta'miri	Yillik ta'mir rejasi, energetik samaradorlikni oshirish	Har yili 2025–2029	Operatsion departament, Moliya va rejalashtirish departamenti	Universitet byudjeti	Yillik kamida 1 bino ta'mirlanadi
86	Korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqish	Boshqaruv tamoyillari, axloq kodeksi, manfaatlar to'qnashuvi tartibi	2025–2026 y.	Rektor, Rektor yordamchisi	Universitet byudjeti	Kodeks tasdiqlanadi
87	Marketing va brending strategiyasini joriy etish	PR siyosati, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, OTU brendini mustahkamlash	2025–2027 y.	Marketing departamenti	Universitet byudjeti	Tan olinish darajasi oshadi
8. VASIYLIK (BOSHQARUV) KENGASHI ROLI						
88	Vasiylik kengashi yig'ilishlarini choraklik o'tkazish	Yillik yig'ilishlar jadvali, kun tartibi, qarorlar protokoli va ijro nazorati	Choraklik 2025–2029	Boshqaruv kengashi raisi, kotib	Universitet byudjeti	Yiliga 4+ yig'ilish
89	Strategiya ijrosi bo'yicha yillik hisobotni ko'rib chiqish	Rektorning yillik hisoboti, KPI bo'yicha bajarilganlik, korreksiya takliflari	Har yili dekabr	Boshqaruv kengashi, rektor	Universitet byudjeti	Yillik hisobot ma'qullanadi
90	Moliyaviy hisobot va auditni tasdiqlash	Mustaqil auditor xulosasi, moliya bo'limining hisoboti asosida	Har yili mart oyi	Boshqaruv kengashi, bosh hisobchi	Universitet byudjeti	Audit xulosasi ma'qullanadi
91	Tarmoq mutaxassisleri va biznes-hamkorlarni kengashga jalb etish	Mustaqil a'zolari kiritish, ekspert kengashlari tashkil etish	2025–2026 y.	Ta'sischi, Boshqaruv kengashi raisi	Universitet byudjeti	Mustaqil a'zolar 3+
92	Korporativ boshqaruv kodeksini tasdiqlash	Boshqaruv tamoyillari, manfaatlar to'qnashuvi, axloq normalarini kelishish	2026-yil	Boshqaruv kengashi, Rektor yordamchisi, Universitet yuristi	Universitet byudjeti	Kodeks kuchga kiradi

93	Strategiyaning oraliq monitoring (2027) va korreksiyasi	Strategiya va yo'l xaritasi natijalarini tahlil qilish, kerak bo'lsa qayta ko'rib chiqish	2027 yil III–IV chorak	Boshqaruv kengashi, rektor,	Universitet byudjeti	Korreksiya kiritiladi
----	---	---	------------------------	-----------------------------	----------------------	-----------------------

YAKUNIY QOIDALAR

1. Yo'l xaritasini amalga oshirish bo'yicha umumiy mas'uliyat Osiyo texnologiyalar universiteti rektoriga yuklatiladi.
2. Har bir prorektor o'z yo'nalishi bo'yicha yo'l xaritasi chora-tadbirlarining bajarilishini bevosita ta'minlaydi va choraklik hisobot taqdim etadi.
3. Mas'ul ijrochilar — strukturaviy bo'linmalar boshliqlari yo'l xaritasida belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish bo'yicha shaxsiy javobgardir.
4. Strategik rivojlanish bo'limi (yoki rektor buyrug'i bilan tashkil etilgan ishchi guruh) yo'l xaritasi ijrosi bo'yicha elektron monitoring (dashboard) tizimini yuritadi, har oy ma'lumotlarni yangilab boradi.
5. Moliya bo'limi yo'l xaritasidagi chora-tadbirlar uchun yillik byudjet rejasini tuzadi va ularning moliyaviy ta'minoti uchun javobgar bo'ladi.
6. Mazkur Yo'l xaritasi Osiyo texnologiyalar universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan kundan kuchga kiradi. Yo'l xaritasiga o'zgartirish va qo'shimchalar rektor buyrug'i bilan kiritiladi.
7. Yo'l xaritasi matni universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va universitet jamoasi, talabalar va manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo'ladi.